



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 451-456 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA GAROV PORTFELI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI



Nayimov Shohruh

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida garov portfelini boshqarish mexanizmlari o'rganilib, ularning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot garovlarni baholash, risklarni boshqarish va yangi texnologiyalarni joriy etishdagi mavjud muammolarni ko'rsatib, garov portfeli boshqaruvini takomillashtirish uchun zamonaviy metodologiyalar, regulyatorlik talablarini kuchaytirish va innovatsiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, garov portfeli, risklarni boshqarish, regulyatorlik, texnologik innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article examines the mechanisms for managing collateral portfolios in commercial banks and explores ways to improve their effectiveness. The study highlights the current challenges in collateral management, including risk assessment and the integration of new technologies.

Keywords: commercial banks, collateral portfolio, risk management, regulatory frameworks, technological innovation, financial stability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются механизмы управления залоговыми портфелями в коммерческих банках и исследуются пути повышения их эффективности. Исследование подчеркивает текущие проблемы управления залогами, включая оценку рисков и интеграцию новых технологий.

Ключевые слова: коммерческие банки, залоговый портфель, управление рисками, регуляторные рамки, технологические инновации, финансовая стабильность.

Kirish

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xavf-xatarlarni boshqarishda garov portfeli muhim vosita hisoblanadi. Garovlar banklar uchun kredit risklarini kamaytirish, kapitalni samarali taqsimlash, aktivlarni diversifikatsiya qilish va umumiy moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar tomonidan garov portfelini boshqarish samaradorligi, nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy tizimning xavf-xatarlarini boshqarish, kredit faoliyatining xavf darajasini kamaytirish va moliyaviy oqibatlarni prognozlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, garov portfeli boshqarishning yuqori samaradorligi bankning risklarini

kamaytirish va ularning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi, bu esa tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Biroq, tijorat banklarida garov portfelini boshqarishning bir qator muammolari mavjud. Garov portfeli sifatining pastligi, garov baholashning aniq va to'g'ri metodologiyalarga asoslanmasligi, regulyatorlik talablarning to'liq amalga oshirilmassligi, va texnologik vositalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, banklar faoliyatida xavf-xatarlarning oshishiga olib keladi. Ushbu omillar, nafaqat banklar uchun, balki iqtisodiyotning umumiy barqarorligi uchun ham xavf tug'diradi. Shu bois, garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni qo'llash va regulyatorlik talablarini kuchaytirish zarurati, bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklarining garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ayniqsa muhim, chunki mamlakatning iqtisodiyoti global moliyaviy bozorlar bilan integratsiya qilish jarayonida yangi xavf-xatarlar bilan yuzlashmoqda. Shuningdek, banklar o'z portfellarini boshqarishda samarali metodologiyalarga, yangi yondashuvlarga va raqamli texnologiyalarni joriy etishga ehtiyoj sezmoqda. Garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, tijorat banklarining risklarini optimallashtirish va ularning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, garov portfeli samarali boshqarilishi, iqtisodiyotda yuqori darajadagi xavf-xatarlarni oldini olishga va banklarning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar Sharhi

Tijorat banklarida garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki iqtisodiyotdagi xavf-xatarlarni boshqarish va kapitalni samarali taqsimlashda ham muhim ahamiyatga ega. Garov portfeli boshqaruvi, asosan, kredit risklarini kamaytirish, kreditlar xavfini o'zaro taqsimlash, va moliyaviy resurslarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklari uchun garov portfelini boshqarishning samaradorligi, banklarning uzoq muddatli rivojlanishiga va iqtisodiy tizimning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Garov portfelini boshqarish, kreditlar va ularni ta'minlash uchun ishlatiladigan garovlar orasidagi risklarni boshqarishni anglatadi. Tijorat banklari garov portfeli boshqaruvinini amalga oshiradigan asosiy mexanizmlar, asosan, aktivlarni diversifikatsiya qilish, garovlarning baholash tizimi va kredit risklarini samarali taqsimlashga qaratilgan. Garov portfeli boshqarishning samaradorligi banklarning o'z risklarini kamaytirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur. Bir qator tadqiqotchilar, jumladan, Merton (1977) va Black-Scholes (1973), banklarning garov portfeli boshqarishda risklarni optimallashtirish uchun ilg'or matematik modellardan foydalanishni taklif etganlar. Ularning tadqiqotlari kredit risklarini baholashda zamonaviy metodologiyalarning joriy etilishi zarurligini ko'rsatadi [1], [2].

Banklarda garov portfeli boshqaruvi strategiyalarining birinchi asosiy yo'nalishi - bu aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirishdir. Banklar, har xil aktiv turlari va kredit risklarini taqsimlash orqali, o'zlarining kredit portfellarini diversifikatsiya qilishadi. Diversifikatsiya qilishning asosiy maqsadi risklarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashdir. Aslida, diversifikatsiya qilish strategiyasi har xil

sohalarda va turli xil garov turlarida faoliyat yurituvchi aktivlarni tanlash orqali xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi [3].

Garov portfelini boshqarishda yuzaga keladigan asosiy muammolar banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda to'siqlarni yaratadi. Birinchi muammo garov sifatini baholashdagi zaifliklar bilan bog'liq. Bir nechta tadqiqotlar, xususan, Jorion (2007) va Allen va Santomero (1997) tomonidan amalga oshirilgan tahlillarda, banklarning garovlarni baholashda noto'g'ri metodologiyalarni qo'llashdan o'tkazilgan qisqacha vaqtda ko'plab muammolar kelib chiqqanligi ko'rsatilgan. Ularning fikricha, garovlarning haqiqiy qiymatini aniq baholashda banklar noto'g'ri tahlil usullaridan foydalanadilar va bu, o'z navbatida, garov sifatini pastlatadi va kredit risklarini oshiradi [4], [5].

Ikkinchi muammo regulyatorlik talablarining yetarlicha kuchaytirilmasligidir. Garov portfelini boshqarish mexanizmlarini samarali qo'llash uchun banklar, regulyatorlarning amaldagi qonun-qoidalariga to'liq rioya qilishi kerak. Banklarning ba'zi hollarda regulyatorlik talablariga rioya qilmasliklari, kredit xavflarini oshirish va bankning moliyaviy holatini zaiflashtirishiga olib keladi [6]. Regulyatorlikni kuchaytirish, garov portfelini boshqarishda yangi standartlar va nazorat tizimlarini yaratishni talab qiladi.


Shuningdek, banklarning garov portfelini boshqarishdagi texnologik muammolar ham mavjud. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kredit risklarini oldindan prognoz qilish va garovlarni baholashda aniq tizimlarni yaratish banklarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhimdir. Ko'plab tadqiqotlarda garov portfeli boshqaruvining texnologik vositalarini kuchaytirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va boshqa innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi ko'rsatilgan.

Garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbollari banklar uchun nafaqat risklarni kamaytirish, balki moliyaviy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Banklar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali, garovlarni baholashni tezlashtirishi va to'g'ri baholash tizimlarini yaratishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, banklar uchun xavflarni optimallashtirish va risklarni taqsimlashni osonlashtiradi.

Tahlil va Natijalar


Tijorat banklarida garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari va muammolari bo'yicha olib borilgan tahlil, garov portfeli boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun kerakli mexanizmlar va strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. O'zbekistonda banklar o'zlarining garov portfellari orqali kredit risklarini boshqarishda keng qamrovli yondashuvni ishlab chiqishlari zarur.

Banklarning garov portfelini boshqarish samaradorligini baholashda, birinchi navbatda, portfelni diversifikatsiya qilishning ahamiyati ta'kidlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, banklar o'zlarining garov portfellari orqali risklarni taqsimlashda ma'lum darajada samarali bo'lishgan. Biroq, garov sifatining baholanishi va diversifikatsiya qilishning yetarli darajada amalga oshirilmasligi mavjud bo'lgan asosiy muammo sifatida ko'rsatilmog'da. Bu, o'z navbatida, kreditlarning qaytarilmasligi xavfini oshiradi. Banklar ko'pincha garovlarni baholashda to'liq va aniq metodologiyalarga tayanmasdan, asosan mavjud tizimlarga suyanadilar, bu esa risklarni to'liq baholashda yetarlicha aniq natijalarga olib kelmaydi.



1-rasm. Banklar tomonidan ajratilgan jami ipoteka kreditlari bo'yicha LTV ko'rsatkichining taqsimlanishi [7]

Banklar tomonidan ajratilgan jami ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan kredit summasini garov qiymatiga nisbati (LTV) ko'rsatkichida pasayish kuzatildi. 2023-yilda ushbu kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan LTV ko'rsatkichi 75 foizni tashkil etgan. Banklar tomonidan ajratilgan jami ipoteka kreditlari bo'yicha yuqori ulushga ega kredit summasini garov qiymatiga nisbati (LTV) ko'rsatkichlari 75–99 foiz oralig'ida shakllangan. 2023-yilda banklar tomonidan ajratilgan jami ipoteka kreditlari bo'yicha 75–84 foiz oralig'idagi LTV ko'rsatkichi 43 foiz, 85–99 foiz oralig'idagi LTV ko'rsatkichi esa 25 foizni tashkil etgan.



2-rasm. Uy-joy narxlarining pasayish ssenariylariga asosan ipoteka kreditlari bo'yicha LTV ko'rsatkichining taqsimlanishi, 2023-yil [8]

Aktivlar narxlari keskin kamayishining banklar kredit portfeli sifatiga ta'siri, 2023-yil ma'lumotlari asosida shartli ravishda uch xil ssenariy (20, 30 va 40 foiz) bo'yicha baholandi. Bunda, tijorat banklari tomonidan ajratilgan ipoteka va avtokreditlar uchun

garov sifatida olingan ko'chmas mulk va avtomobillar bozor qiymatlarining kamayishi hisobiga LTV ko'rsatkichi ortishi inobatga olindi. Shuningdek, uy-joy va avtomobil narxlarining keskin tushishi natijasida kredit miqdorini garov qiymatiga nisbati 120 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarning shartli ravishda qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik farazi ilgari surilgan. Uy-joy narxlarining 20 foizga arzonlashishi bank aktivlari sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarning jami ajratilgan ipoteka kreditlardagi ulushi 2 foizni tashkil etishi 95 mumkin. Bu esa, ajratilgan ipoteka kreditlarining yuqori qismi yetarlicha garov bilan ta'minlanmasligi mumkinligini dalolat bermoqda. Uy-joylar narxining fundamental qiymatiga qadar ya'ni 30 foizga pasayish holatida O'zbekiston bank tizimi bardoshli bo'lishini ko'rsatdi. 2023-yil davomida ajratilgan ipoteka kreditlarning 82 foizida yetarlicha garov ta'minoti mavjud bo'lmaydi. Jumladan, uy-joy narxlarining fundamental qiymatiga qadar arzonlashishi natijasida 2024-yil oxirida NPLning jami kreditlardagi ulushi 4,5 foizgacha ko'tarilishi mumkin. Uy-joy narxlarining 40 foizga arzonlashishi bank tizimi barqarorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uy-joy narxlarining 40 foizga kamayishi natijasida, LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori bo'lgan ipoteka kreditlarining ulushi 81 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, ipoteka krediti oluvchilarning katta qismida kredit to'lashdan ko'ra garovdan voz kechish ehtimoli yuqori ekanligini anglatadi. Bunday holatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit xavfi oshadi. Uy-joy narxlarning 40 foizga pasayishi 2024-yil yakuniga ko'ra NPLning jami kredilardagi ulushini 6,4 foizda shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Takliflar

Tijorat banklarida garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun bir qator strategik yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, garov portfelini boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish va yangi baholash metodologiyalarini joriy etish banklarning xavflarni aniqlash va taqsimlash jarayonini samarali qilishga yordam beradi. Banklar yuqori sifatli garovlarni tanlash va diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratishlari lozim, chunki bu portfelning risk darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data), garovlarni tez va aniq baholashni ta'minlab, xavf-xatarlarni oldindan prognoz qilish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, regulyatorlik talablarini kuchaytirish va yangi normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Bu talablar banklarning garov portfelini boshqarish jarayonlarini qat'iyroq nazorat qilishni ta'minlaydi va kredit xavflarini to'g'ri baholashni imkonini beradi. Shuningdek, banklar o'zlarining portfellari bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshirib, xavf-xatarlar va garovlarning qiymatini vaqtida baholashlari kerak.

Xulosa

Tijorat banklarida garov portfelini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarlarni boshqarish va iqtisodiyotning xavf-xatarlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalari, garov portfelini boshqarishning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni, regulyatorlikni kuchaytirish va innovatsion metodologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Banklar o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezda moslashish, risklarni aniqlash va ularni samarali boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashlari mumkin.

Garov portfeli boshqaruvining samaradorligini oshirish nafaqat banklar uchun, balki iqtisodiy tizimning xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Black, F., & Scholes, M. (1973). *The pricing of options and corporate liabilities*. Journal of Political Economy, 81(3), 637-654.
2. Brealey, R. A., & Myers, S. C. (2003). *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill.
3. Hancock, D. (1998). *The role of risk management in the banking industry*. Journal of Risk and Insurance, 45(1), 22-39.
4. Jorion, P. (2007). *Financial Risk Management: Models, History, and Institutions*. Wiley.
5. Merton, R. C. (1977). *An analytical derivation of the efficient portfolio frontier*. Journal of Financial and Quantitative Analysis, 12(1), 141-149.
6. Merton, R. C. (1995). *Financial markets and economic performance*. Journal of Financial Economics, 38(1), 203-234.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil uchun "Moliyaviy barqarorlik sharhi".

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

